



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2025-YIL YANVAR-FEVRAL

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2025-yilning 1-mart holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 864 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 464 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 24,9 % i Termiz shahrida joylashgan.

2025-yil 1-mart holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda



Termiz sh.	464
Termiz t.	156
Denov t.	147
Sariosiyo t.	138
Jarqo'rg'on t.	137
Qumqo'rg'on t.	114
Boysun t.	112
Angor t.	105
Sho'rchi t.	92
Sherobod t.	82
Qiziriq t.	72
Muzrabot t.	72
Oltinsoy t.	67
Uzun t.	58
Bandixon t.	48

1 036

448

380

Bino va
inshootlar
qurilishi


Fuqarolik
obyektlarini
qurish

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Shuningdek, Termiz tumanida – 156 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,4 %), Denov tumanida 147 ta (7,9 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-fevral uchun)


2025-yilning yanvar-fevral oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 1 046,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.



Oldingi yilning mos davriga nisbatan



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2025-yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari *

**Hududlarning hajmi va 2024-yilning mos davriga nisbati,
mlrd so‘m va foizda**

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m *	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1 046,8	108,7	100,0
Termiz sh.	219,2	115,9	20,9
tumanlar:			
Oltinsoy	8,6	125,8	0,8
Angor	22,1	117,7	2,1
Bandixon	8,0	102,1	0,8
Boysun	50,9	105,8	4,9
Muzrabot	23,3	105,3	2,2
Denov	61,5	104,9	5,9
Jarqo‘rg‘on	53,6	113,5	5,1
Qumqo‘rg‘on	21,7	101,7	2,1
Qiziriq	20,7	102,9	2,0
Sariosiyo	80,7	102,0	7,7
Termiz	45,7	103,3	4,4
Uzun	13,4	106,6	1,3
Sherobod	40,1	103,3	3,8
Sho‘rchi	20,2	107,8	1,9


)* hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2025-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (219,2 mlrd so‘m), Denov tumani (61,5 mlrd so‘m) va Sariosiyo tumanida (80,7 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,0 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 83,4 % i yoki 872,9 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

82,2
mlrd so'm

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 82,2 mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.

9,4 %

411,0
mlrd so'm

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 411,0 mlrd so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.


47,1 %

379,7
mlrd so'm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 379,7 mlrd so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 43,5 % ni tashkil etdi.

43,5 %


Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2025-yilning yanvar-fevral oyida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 809,6 mlrd so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,1 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga kamayib, 46,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 48,0 % ni tashkil etdi.

**2025-yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari**
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, 174,8 mlrd so'm




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 29,2 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 70,8 % (2,0 % punktga kamayish).

2025-yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, **62,4 mlrd so'm**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi va 9,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 90,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Qurilish ishlari * hajmining tarkibi, *mlrd so'mda*



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2024-yilning mos davri bilan solishtirganda –
153,4 %



Kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning mos davri bilan solishtirganda –
106,1 %




Norasmiy sektor

2024-yilning mos davri bilan solishtirganda –
104,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 98,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 153,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,7 % ga ko'payib, 9,4 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari *

Hududlarning hajmi *, mlrd so'mda



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Qumqo'rg'on tumani

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 10,1 % i), Sariosiyo tumani (36,9 %) va Qumqo'rg'on tumanida (4,6 %) qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,5 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etgan holda 560,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar *

Hududlarning hajmi *, mlrd so'm

Surxondaryo viloyati

Termiz sh.

Oltinsoy

Angor

Bandixon

Boysun

Muzrabot

Denov

Jarqo'rg'on

Qumqo'rg'on

Qiziriq


Sariosiyo

Termiz

Uzun

Sherobod

Sho'rchi



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



185,3
mlrd so'm

Termiz shahri



31,7
mlrd so'm

Denov tumani




38,3
mlrd so'm

Boysun tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (185,3 mlrd so'm), Denov tumanida (31,7 mlrd so'm) va Boysun tumanida (38,3 mlrd so'm) qayd etildi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,1 % ni yoki 388,7 mlrd soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi. Shundan 356,8 mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 22,9 mlrd soʻmni va 103,1 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 9,0 mlrd soʻmni va 108,5 % ni tashkil etdi.




2025-yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor *

Hududlarning hajmi *, mlrd so'mda

Surxondaryo viloyati

Termiz sh.	11,8
Oltinsoy	4,0
Angor	5,4
Bandixon	3,1
Boysun	12,5
Muzrabot	10,8
Denov	28,8
Jarqo'rg'on	17,2
Qumqo'rg'on	7,8
Qiziriq	6,2
Sariosiyo	21,0
Termiz	11,0
Uzun	5,2
Sherobod	19,1
Sho'rchi	9,0



388,7

)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



28,8 mlrd so'm
Denov tumani



21,0 mlrd so'm
Sariosiyo tumani




12,5 mlrd so'm
Boysun tumani


Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (28,8 mlrd so'm), Sariosiyo tumanida (21,0 mlrd so'm) va Boysun tumanida (12,5 mlrd so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-fevral oylaridagi hajm, *mlrd so'mda*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 5,4 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 041,4 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 0,5 % va 99,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Bandixon tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Boysun tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i) va Sherobod tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 76 225-65-59 (7520)